



*Siddiqjonova Madinaxon Akmaljon qizi*

*Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi  
Hamshiralik ishi fani o'qituvchisi*

**Fizioterapiya** ([grekcha](#): *phýsis*, tabiat + [therapéia](#), davolash)

**Fizioterapiya** - bu fizioterapevtlar tomonidan bemorlarning hayoti davomida tananing maksimal harakat erkinligini va funksionalligini rivojlantirish, saqlash va tiklash maqsadida ko`rsatiladigan xizmatlardir. Fizioterapiya xizmatlari qarilik oqibatida, shikastlanishlarda, og'riqlarda, turli xil kasalliklarda, buzilish, holat yoki atrof-muhit omillari natijasida tananing funksionalligi va harakatchanligi buzilgan hollarda, to'liq funktsional harakat sog'liqning eng muhim omili ekanligini tushungan holda taqdim etiladi .

Fizioterapiya turli kasalliklarni tabiiy omillarning inson organizmiga jismoniy ta`siridan foydalangan holda davolash uslublarini taklif etadi.

Barchaga ma`lumki, ba`zi hollarda farmakologik preparatlarni qabul qilish nojo`ya ta`sir ko`rsatishi yoki allergiya yoki preparat va uning komponentlariga nisbatan yuqori sezuvchanlik, ovqat hazm bo`lishining buzilishi, qorin shishishi, ich qotishi, diareya, jigar yoki boshqa sog`lom organlarga ta`sir va hatto shunchaki dorining og`izdagi yoqimsiz ta`mi kabi noxush reaksiya va oqibatlarga olib kelishi mumkin. Fizioterapiya esa odatiy dori preparatlarini qabul qilishni ancha kamaytirishga imkon beradi, ba`zi hollarda esa organizmga tashqi foydali jismoniy ta`sir ko`rsatish hisobiga bunday muolajadan butunlay voz kechish yoki uning ta`sirini to`ldirish mumkin. Unga qo`shimcha tarzda aytish mumkinki, ba`zi muolaja jarayonlaridan o`tish nafaqat foydali, balki yoqimli bo`ladi. Ular bo`shashtirish, tinchlantirish va o`z vaqtida yangi hissiyotlar tuhfa etish xususiytiga ega. Muolajalar kerak joyida sog`lom organlarga zarar yetkazmagan holda organizmingizni sog`lomlashtiradi.



**Fizioterapiya quyidagi sog`lomlashtruvchi davolash tartiblari kompleksini o`z ichiga oladi: issiqlik terapiyasi, elektroforez, nur yordamida muolaja, magnitoterapiya, CMT-fizioterapiya, УВЧ, umumiy УФО, darsonval, ultratovushli ta`sir, elektromassaj, ingalyatsiya, amplipuls, cho`zish, manual terapiya va massaj.**

Bu kabi davolash usullari aniqsa og`ir operatsiyalar, shikastlanishlar, jiddiy surunkali kasalliklarni boshidan o`tkazgan bemorlarga organizmning tezlashtirilgan reabilitatsiyasi va hayotiy tonusini oshirish maqsadida tayinlanadi. Ba`zi fizioterapevtik uslublarni qo`llashdan davolash natijalarini ushlab turish va mustahkamlash uchun profilaktika maqsadlarida va yanada yaxshiroq samaraga erishish uchun foydalanish mumkin.

Tabiiy omillarning organizmga ijobiy ta`siri sharofati bilan qon aylanishi, limfa aylanishi va tomir-muskul hissi yaxshilanadi, immunitet va metabolizm jarayonlari jadallahadi, to`qimalar regeneratsiyasi tezlashadi, organlarning normal ishchanligi tiklandi .



**Fizioterapiya uslublari osteoxondrozda, tanosil tizimidagi kasallikkarda, stomatologiyada va tibbiyotning boshqa ko`plab sohalarida keng qo`llaniladi.**

Ammo, jarayonlarning og`riqsizligiga qaramay, bir qator qarshi ko`rsatmalar mavjud. Shuning uchun fiziomuolajaga kirishishdan oldin vrach bilan maslahatlashish juda muhim. Vrach puxta tekshiruvdan so`ng aynan sizga mos bo`lgan fizioterapiya kursini tayinlaydi.

**Cho`zish** – tayanch-harakatlantiruvchi tizim (umurtqa)ni davolash usuli.

Umurtqani traksion cho`zishning bir necha xillari mavjud – quruq gorizontal va vertikal cho`zish, suvosti gorizontal va vertikal cho`zish, muskul relaksatsiyasi asosidagi cho`zish.



Uslubning mazmuni shundan iboratki, umurtqa odamning o`z vazni, qo`shimcha yuklar yoki maxsus apparatlar yordamida cho`ziladi (ilmiy tilda “traksiya”). Umurtqa ustunini cho`zish jarayon davomida umurtqa o`rtasidagi tirkishning kattalashishi tufayli siqilgan nerv tomirlarini, muskul to`qimalarini va qon tomirlarini bo`shtish imkonini beradi. Natijada siljigan umurtqalar o`z joyiga qaytadi, qon aylanishi yaxshilanadi, umurtqalarni o`rab turgan chuqur muskullar bo`shashadi, og`riq sindromlari va spazmalar o`tib ketadi. Jarayon va bosim tezligi zamonaviy uskuna tomonidan qat`iy nazorat qilinadi va tibbiyot xodimining sinchkov kuzatuvida bo`ladi. Bu bilan umurtqa ustuniga ehtiyyotkorlik va asta-sekinlik bilan ta`sir o`tkazishga erishiladi va keskin bosim yoki shikastlanish xavfini yo`qqa chiqaradi. Bemor sog`lig`i uchun yanada ijobiy samaraga erishish maqsadida 10 va undan ko`p davolanish tartiblaridan iborat muolaja kursini o`tish tavsiya etiladi, negaki ta`sir bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan bo`lishi lozim.

Jarayondan so`ng umurtqaga bosim berish bilan bog`liq ba`zi cheklash va tadbirlarga amal qilish juda muhim: og`ir yuk ko`tarish; sakrash yoki yugurish bilan shug`ullanish; umurtqa ustuniga rotatsion va o`q bo`ylab bosim beruvchi har qanday mashqlarni bajarish mumkin emas; muolaja davrida barcha og`ir jismoniy bosimlardan holi bo`lish lozim. Bu organizmga kasallikni oson va tez yengib o`tishiga yordam

beradi va tayanch-harakatlantiruvchi apparatni sog`lomlashtirishga qaratilgan muolaja jarayonlarini sermahsul va xavfsiz o`tishiga imkon yaratadi.

**Umurtqani cho`zish** – davolashning juda samarali uslubi. Qator qarshi ko`rsatmalar mavjudligi sababli, u ko`plab belbog` kasalliklarida bemorni puxta tibbiy tekshiruvdan o`tkazgandan so`ng tayinlanadi. Qo`yilgan tashxisdan kelib chiqib vrach traksion cho`zish jarayonini bajarishning eng mos keladigan usulini tayinlaydi.



**Lazeroterapiya** – optik kvant generatorlari tomonidan ishlab chiqariladigan quyi tezlikdagi lazer nurlanishini qo`llashga asoslangan muolaja uslubi. Qizil va infraqizil lazer nurlanishlari organizmga bir bog` jamlangan nurning chuqur kirib borish yo`li bilan ta`sir etish samarasiga ega va tibbiyotning ko`plab sohalarida keng turdag'i kasalliklarni davolashda qo`llaniladi. Terapevtik lazer nurlanishining asosi nur quvvatining yuqori biologik faolligidan va o`ziga xos fizikaviy va kimyoviy xususiyatlaridan foydalanishdan iborat. Nur yuqori spektral zichlikka ega bo`lib, odam organizmiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Shuningdek, bu qabul qilinayotgan dori preparatlari miqdorini kamaytirish, organlar regeneratsiyasini tezlashtirish va ularni tonusda ushlab turish imkonini beruvchi fiziojarayondir.

Lazeroterapiya davolash tartiblari to`qimalardagi fotokimyoviy va fotofizik jarayonlarni faollashtiradi, ularning qon bilan ta`minlanishini yaxshilaydi va kislород bilan to`ydiradi, organizmdagi trofik va regeneratsiya jarayonlarini jadallashtiradi, shikastlanish o`chog`iga yallig`lanishga qarshi, shishlarni tarqatuvchi ta`sir ko`rsatadi, og`riq sindromini sustlashtiradi, qon quyulishini kamaytiradi, immun hujayralari vazifalarini faollashtiradi.

Lazeroterapiyani yurak qon-tomir kasalliklarida, dermatologik muammolar yuzaga kelganda, nevrologik buzilishlarda, nafas olish organlari patologiyalarida,

oshqozon-ichak kasalliklarida, bo`g`imlar va umurtqa kasalliklarida, tanosil tizimi kasalliklarida, stomatologik patologiyalarda qo`llaniladi.

Tananing kerakli qismlariga maxsus yo`naltirilgan nurli nurlanish ta`siri teri qoplamiga zarar yetkazmay va odam tanasiga shikast yetkazmay bemor holatini juda yumshoq tarzda anchayin yaxshilashga yordam beradi. Lazeroterapiyaning afzalligi shundaki, jarayon og`riqsiz kechadi va shuningdek, profilaktika maqsadlarida ham qo`llanilishi mumkin, bunda sog`lomlashish jarayoni ancha tezlashadi va muolaja natijasining uzoq vaqt saqlananishi ta`minlanadi.

Optik diapazon (lazer)dan foydalanish sababli fiziojarayon og`riqsiz bo`lishiga qaramay, lazeroterapiya bir qancha qarshi ko`rsatmalarga ega, shuning uchun vrach ushbu davolash tartibini bemorni sinchiklab tekshirgandan so`ng tayinlaydi.



### Fizioterapiya uchun quyidagi uskunadan foydalilanadi:

- BTL-4000 Premium kombinatsiyalangan fizioterapiya apparati (elektroterapiya + ultratovushli terapiya moduli);
- BTL-6000 Combi fizioterapiya apparati (qisqato`lqinli terapiya moduli)
- BTL-6000 Combi fizioterapiya apparati (pressoterapiya moduli)
- cho`zish BTL — 16 PLUS;
- Ultratovushli terapiya apparati Y3T — 1,01 Φ;
- lazeroterapiya- BTL 6000 COMBI;
- magnit BTL 4000/5000 Series;
- ampli puls -5 quyi xususiy fizioterapiya apparati;
- УВЧ-30,03;
- elektroson-ЭС 8М;
- elektroforez Поток-1;

- dorsenval Искра-1;
- nugabest;
- zarb-to`lqinli terapiya-5000/6000 SWT.



### Asosiy adabiyotlar

1. Zokirova K.O', Toxtamatova D.O' «Hamshiralik ishi asoslari». Toshkent, 2009
2. Inomov K.S. «Hamshiralik ishi asoslari». Toshkent, 2003
3. Inomov K.S. «Hamshiralik ishi asoslari». Toshkent, O'zbekiston milliy nashriyoti, 2007
4. Nazirov F.G. «Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish». Toshkent, Abu Ali ibn Sino nashriyoti, 2003
5. Tolkachyova O.V., Zinkovskaya I.V. «Osnovi sestrinskogo dela». Toshkent, Tasvir nashriyoti, 2008
6. Tolkachyova O.V., Zinkovskaya I.V. «Osnovi sestrinskogo dela». Toshkent, Cho'lpon nashriyoti, 2009
7. Umarova T.Yu. «Hamshiralik ishi». Toshkent, 2003 Fozilbekova M.A. «Hamshiralik ishi nazarii asoslari». Toshkent, 2003

### Internet saytlari :

1. <http://www.Google.ru>.
2. <http://www.Doctorbee.ru>.
3. <http://www.Ziyonet.uz>.